

Ushbu senariylar [BAXTIYOR.UZ sayti uchun tayyorlandi](#). Bu - o'quvchi va o'qituvchilar uchun eng yaxshi portal!

Navro'z tadbir uchun senariylar to'plami

Marhabo Navro'z (Shou tadbir)

Hademay nastarin gullaydi bodrab,
Osmonga hushimni eltib ifori.
Quyoshli shudringlar tushar ertalab.
Yuvib dillardagi qishning g'uborin.

Hademay qaldirg'och keladi qaytib,
O'rik shohlarida bo'rtar dovuchcha,
Turnalar azaliy qo'shig'in aytib,
Sumalak pishadi tong otgunicha.

Hademay lolalar bo'sadek titrab,
Tog'lar viqoriga munis boqarlar,
Yana necha-necha oshiqlar yig'lab,
Bir-birin bag'rida gulhan yoqarlar.

Mening bir kunim ham kun deb Qish nochor,
Ketolmay qor sepib turadi hanuz,
Bir kuy yaraladi, Quyosh bastakor,
Hademay Navro'zdir, hademay Navro'z!

Baxor gullaridan guldasta sizga
Chin qalbim tabrigi payvasta sizga
Bir asr yashanggu, ya'na nim chorak
NAVRO'ZI OLAM bo'lsin muborak

Soginchlardan yasay sizga guldasta
Guldasta qilib qalbim payvasta
Olislardan turib deyman men asta
Navrözi ayyom muborak bo'lsin!

Tadbir o'tkaziladigan joy nihoyatda go'zal, bayramona tarzda bezatilgan. Bir so'z bilan aytganda - bahor nafasi, Navro'z nashidasi aks etgan dargohga aylangan.

Xonandalarning xonishi, qushlarning chug'ur-chug'uri, tadbir qatnashchilarining yuzidagi tabassumi, xush kayfiyat barcha-barchani shodiyona ayyomga chorlab turibdi. Qo'shiq asta-sekin pastlab, sahnada jarchilar paydo bo'lismadi. Ular jo'rlikda ikki tomonga peshvoz borib:

Bor ho, kel ho,
Hamalam ha,
Yo'l qayda?
Tezda chopib kel,
Yo'lni topib kel.
O'ynagani kel,
Quvnagani kel, -deya go'yo Navro'zni olqishlashadi:

-Odamlaru odamlar,
Bog'da bitgan bodomlar.
Eshitmadim, demanglar,
Eshitganlar, jilmanglar,
Barcha yaxshi odamlar,
Bayramga tez kelingla-ar.

He-he-he-hey-y!

Davraka bayramona - shohona, bahoriy liboslari bilan Navro'zoy yuzlarida tabassum balqib chiqib keladi:

Oppoq o'rik gullarim bilan,
Quvnoq qo'shiq, kuylarim bilan
Mehmon bo'lib keldim, odamlar,
Armug'onim sizga, bolalar.
Men Navro'zoy - go'zal bahorman,
Sizga sevinch bilan boqarman.

U shunday deya ko'yaklarini hilpiratib, yurib emas, uchib o'tayotgandek davrani boshlovchilarga beradi. An'anaviy ravishda sahnaga juda go'zal kiyangan ikki boshlovchi bayramona kayfiyatda chiqib kelishadi.

1-boshlovchi:

Tabiatda bugun o'tli uyg'onish,
Nur bilan kiradi dilga orzular.
Yuraklar shodlikdan etadi xonish,
Labdan labga ko'char mayin kulgular.

2-boshlovchi:

Quyosh kirib kelar har xonadonga,
Barobar ulashar yog'dusin bugun.
Quyosh tabassumi etar jahonga,
Ushalar dildagi orzular bugun.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, qadrli ustozlar, muhtaram mehmonlar, aziz o'quvchilar! Mana o'lkamizga fasllar kelinchagi bo'lmish Navro'z ayyomi, bahor bayrami kirib keldi. Soylarda buloq suvlari jildiraydi. Kurtak yozayotgan, daraxtlarning shoxlarida sayroqi qushlar biri-biriga navbat bermay chug'urlashadi.

Tog' etaklari, cho'pon yaylovlari, bog'bonning bog'i yashil maysalardan libos kiymoqda.

2-boshlovchi: Ha, kelinchaklar sumbul sochlariga chuchmomalardan chambarak izlaydi.

Doshqozonlar osilgan, odamlar g'uj-g'uj. Ona allasi singari mayin yallalar quloqqa chalinadi. Qisqasi, hamma narsa o'zgacha tarovatda. Chunki, Navro'z o'lkamiz bo'ylab kezmoqda. Navro'z ayyomingiz muborak bo'lsin!

1-boshlovchi: Bahor bilan ayolni egizak, deyishadi. Shu bois onalar haqidagi, zaminimiz ayollari haqidagi chiqishlarimiz ham dasturimizdan o'rinn olgan.

2-boshlovchi: Ko'klam nafasi ufurib turgan davramizga xush kelibsiz, muhtaram tomoshabinlar, qadamlaringizga hasanot!

1-boshlovchi:

Dimoqqa yalpizlar nafasi urar,
Yurakda muattar chechaklar kular,
Bir suluw kelinchak salomga kelar,
Ostonaga bosh ur, aziz mehmonim,
Navro'zing muborak, O'zbekistonim!

Tadbirga taklif etilgan yuqori sinf o'quvchi qizlari kelin va yangalar kiyimida chiqib, "Salom" boshlashadi. Yangalar har "Salom" deganda "kelin" engashib, salom soladi.

1-yanga:

Osmondagi oydayin,

Yoyilib oqqan soydayin,
Davramizga fayz bergan
Onaxonlarga salom.

2-yanga:

Yuzlarimiz gul qilgan,
Savodimiz mo'l qilgan,
Ta'lim-tarbiya bergan,
Ustozlarga ming salom.

1-yanga:

Atlas ko'ylak kiyganlar,
Yugurib xizmat qilganlar,
Chaqqonlikdan "dars" bergan
Quvnoq qizlarga salom.

2-yanga:

Bayram, deb yig'ilganlar,
She'r-qo'shiq ilinganlar,
Tadbirga navo bergan
San'atkorlarga salom.

1-yanga:

Qora ko'zi munchoqday,
Darsga zehni - quchoqday.
Maktabga Navro'z kelgan !
Barchangizga ming salom..

O'quvchi qizlar "Bahor valsi"ni ijro etadilar. So'ng o'quvchi bolalar bahor, Navro'z, ayol, ona haqida she'rlar o'qishadi, monologlar aytishadi, allomalar fikrlaridan bayon qilishadi.

1-o'quvchi: Mana, bugun diyorimizda uyg'onish fasli - Yangi yilning muqaddimasi - Navro'zi olam! Navro'z asrlar davomida xalqimiz uchun, biz uchun ezzulik, go'zallik, yorug' orzu-umidlarning kurtak otgan payti bo'lib kelgan va doimo shunday bo'lib qolajak!

Navro'z, bu-shodlik, tinchlik, hamkorlik, mustaqillikning qaldirg'ochi, bahorning elchisidir. Bu-ulug'lanish, insonni e'zozlash hamda insonning umriga umr qo'shish, bir yilga yashartirish demakdir.

2-o'quvchi: Navro'z bizlar kimlarning avlodi ekanimizni, qanday ulug' va buyuk meros vorislari ekanimizni jumlai jahonga yaqqol namoyon qiladigan ma'naviy bir ko'zgudir.

Turnalar yurtiga qaytgani kabi,
Bag'ringga qaytmoqda alyor-baytlaring.
Moziydan xayolchan ko'rinish berar
Ming shukur, tabarruk, ulug' zotlaring!
Buyuk daholarni bergan bo'stonim,
Yangi yiling qutlug' , O'zbekistonim!

3-o'quvchi: Bugungi tarovatli tadbirimizda onalarimiz,ayollarimiz haqida harqancha gapirsak, alqasak, she'rlar aystsak, qo'shiq kuylasak, shuncha yarashadi.

Qomusiy allomalarga beshik bo'lgan yurtimiz jahonga ko'plab daholarni, ulkan san'atkorlarni bergan.

Jahon madaniyati va ma'naviyati xazinasiga Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Amir Temur, Mahmud Qoshg'ariy, Ulug'bek, Jomiy, Navoiy,

Bobur kabi yuzlab allomalarni dunyoga keltirib, voyaga yetkazib bergan ham Sharq ayollari - bizning momolarimizdir!

Xalqim yetti iqlim poyini o'par
Ulug'bek, Navoiy, Sinolariningning

Zurriyoding nihoyat hijjalab o'qir
Dunyoga bergusiz dunyolaringni.
Koshonang tabarruk nurlarga to'lzin,
Navro'z ayyoming muborak bo'lzin.

4-o'quvchi:Bizning mustaqilligimiz mustahkamlanib borishi To'marisdek shavkatli momolarimizning, Saroymulkxonimdek oqila ayollarning, Nodirabegim, Uvaysiy, Nozimaxonim, Anbar Otin, Dilshod otin yanglig' onaxonlarimizning borligidan g'ururlanamiz. Chunki ahloqiy poklik, kamtarlik, ozodalik, chaqqonlik, mehmono'stlik, vafodorlik, sobitlik fazilatlari bizning onajonlarimizga, ayollarimizga xos bo♦gan hislatlardir.

5-o'quvchi:
Qo'shiq uchayotir...
Nodira baytidan yaralgan ohang,
Ming bor tinglab, shu on bergen edim tan...
Nodira g'azali bilan aytildigan qo'shiq ijro etiladi.

1-boshlovchi: Chakkasiga gul taqib, daraxtlarga dur taqib, kirib keldi Navro'zim, kulib keldi Navro'zim. Har go'shada Navro'z taomlari - halim, ko'k somsa, ko'k chuchvara, sumalaklar pishirilmoqda. Bu - yillar osha, asrlar osha har yili takrorlanadigan boqiy an'analarimiz - qadriyatlarimizdir.

Doshqozonda sumalak,
Boychechaklar xush darak.
Bolalar yayrashadi,
Qo'shiqlar yangrashadi.
Bobolar halim solar,
Latifa aytib tolar.
Ichakuzdi hazillar,
Qiziydi sho'x bazmlar.

2-boshlovchi: Biroq bu qadriyatlarimizga, bazmlarimizga, jumladan, Navro'zimizga qanchadan-qancha malomat toshlari otilmadi, deysiz. Shunga qaramay, ulug' ayyomimiz xalqlarimiz qalbida, hayot sahnasining to'rida yashayveradi, uni hech qanday yovuz kuch tortib ololmaydi. Chunki Navro'z - xalqimizning asl milliy bayramidir. Hazrat Navoiydekkalloma shoirimiz qalamlaridan to'kilgan mana bu misralar barchangizga yor bo'lzin:

Zamin yangi ko'yvak kiyar, kelsa
Navro'z, bo'lsa Navro'z,
Har tuning qadr o'lubon, har kuning
o'lzin Navro'z!

Davraka buyuk "allomalarimiz va shoiralalarimiz qiyofasi"dagi o'quvchilar kirib kelishadi.

Amir Temur:
-Bizkim, mulki Turon, amiri Turkistonmiz,
Bizkim, millatlarning eng ulug'i va buyugi, turkning bosh bo'g'inimiz.

Alisher Navoiy:
-Men olmasmen, to turki bedor erur,
Bu til birla turk nazmi bunyod erur.

Bobur:
-Charxning men ko'rmagan jabr jafosi qoldimu?
Xasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qoldimu?

Uvaysiy:
-Mehnatu alamlarga mutbalo Uvaysiyman,
Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiyman.

Nodira:
-Ey, Nodira, dahrni imtihon etib ket,
Kel, bu chamanni gulzor etib ket.

"Allomalar" mashhur satrlari bilan o'zlarini tanishtirgach, sohibqiron "bobomiz" so'z boshlaydilar:

Aziz bolajonlarim, mening suyukli nabiralarim! Navro'z ayyomi bahona siz bizlarni yod etdingiz, ko'nglimizni shod etdingiz. O'zbekiston diyorida mustaqillik erkinlari esa boshlagan kundan e'tiboran har bir tadbirdingizda, har bir majlisu yig'inlaringizda meni, yonimdag'i nabira-abiralarimni, ko'plab ahli donishlarni yaxshi so'zlar bilan eslab, yaxshi amallar bilan yo'qlaysizlar. Biz - o'tib ketgan ajdodlaringiz Yo'lboschchingiz sa'y-rahnamoligida barchangizni doimo duo qilurmiz!

Hammalari ta'zim ila borib tomoshabinlar qatoridan joy oladilar.

Olti nafar o'quvchi qizchalar ijrosida "Yomg'ir yog'aloq" qo'shig'i raqsi bilan ijob etiladi.

1-boshlovchi: Aziz do'star, Navro'z saylidagi azal-azaldan bobolarimiz, momolarimiz ardoqlagan udumlarni siz ham bilsangiz kerak.

Bular lapar, aytishuv va turli so'z o'yinlaridir. Bugun o'sha "so'z o'yini"ni e'tiboringizga havola etamiz. O'yin sharti quyidagicha: ishtirokchilar

gullar va qushlar, o'simliklar nomini so'zning oxirgi tovushiga qarab davom ettirishlari kerak.

Boychechak, kaptar, ravoch, chittak, kakku,- deya bolalar so'z o'yinida ishtirok etadilar.

Navro'z qo'shig'i

Boychechak chiqibdi , bugun Navro'z ekan!

Hamma bir-biriga jigarso'z ekan.

Olam ham barobar kecha-kunduz ekan,

Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan!

Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy bobo!

Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy momo!

Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy Ona!

Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan!

Hoy, bog'bon bobo, niholga bersin Baraka!

Hoy, dehqon bobo, dalangga bersin Baraka!

Hoy, cho'pon bobo, qo'rangga bersin Baraka!

Boychechak chiqibdi , bugun Navro'z ekan!

2-boshlovchi: Navro'z xalqimiz uchun poklanish, uyg'onish, yangilanish va ma'naviy kamol topish bayrami bo'lib qolmoqda. Qadimi Navro'z o'zining buyuk mohiyatini saqlab, mustaqillik g'oyasi bilan boyib, ahillik, totuvlik, xalqlarning birdamligi va do'stligi bayramiga ham aylandi.

1-boshlovchi: Har bir xalqning o'z ma'naviyati, insoniy qadriyatları, urf-odatlari, an'analari, buyuk me'rosi bor. Navro~~z~~- o'zbek va Sharq xalqlarining ana shunday ma'naviyat, qadriyatlar bayrami merosi bo'lib, u insonni yuksak vatanparvarlik, mehnatsevarlik, buniyodkorlik, do'stlik, mehr-oqibat,ezgulik, adolat va tinchlik ruhida tarbiyalaydi.

2-boshlovchi:- Mana, barchamizning, kayfiyatimiz - xush, ko~~z~~rganning ko'zi quvnaydi. Ana shunday tabassum, nazokat, nafosat har damda hammamizga, hammangizga yor bo'lsin!

1-boshlovchi: Navro'zi olam muborak, aziz do'star! Bayram tadbirlarimiz har go'shada, har ko'ngilda davom etaversin.

Sho'x musiqa yangrab, bahoriy kayfiyat ila barcha raqsga tushadi.

1. Navro'z fors tojik tilidan olingan bo'lib nav yangi, ro'z esa kun yani navro'z yangi kun degan ma'noni anglatadi.

2. Navro'z bayramini Eron, Afg'oniston, Iroq, Suriya, Ozarbayjon, Bahreyn, Livan, Pokiston, Hindiston, Tojikiston, Turkiya, Albaniya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, O'zbekiston va boshqa boshqa yerdagi fors va turkiy millatlar keng nishonlashadi.

3. Aksariyat mamlakatlarda Navro'z bayrami 21- mart kuni nishonlansa Qozog'istonda 22- mart kuni nishonlanar ekan.

4. Navro'z o'ta qadimiy bayram bo'lib uning paydo bo'lishi arxeologik manbalarga ko'ra bizning yurtimizga to'g'ri kelar ekan. Boshqa afsonalarga qaraganda, Odam Ato Momo Havo bilan uchrashgan kun Navro'z deb tan olingen emish.
5. Navro'z elimizning murodu maqsadini kuylagan, yurtimizning oromu osoyishini o'yagan, butun borliq muruvvat aylagan, bag'riga benihoya ezgu muhabbat joylagan, yomonliklar yo'lin boylagan, yaxshilikdan doston so'yagan, barchani birday siylagan bayramdir bu.
6. Mutaxassislarning asoslangan fikrlariga ko'ra, Quyosh ayni shu kuni hayotbaxsh nurlarini tik, ya'ni 90 daraja burchak hosil qilib, sayyoramizning qoq beliga — ekvatorga yo'naltiradi. Shu daqiqalarda bahorgi kecha-kunduz tenglashadi va 22-martdan boshlab Quyoshning tik yo'nalgan nuri shimoliy tropik chizig'i tomon harakatlanadi. Bu Navro'zning ilk va qutlug' qadami bo'lib, tabiatning jonlanishi bilan kishilarning xo'jalik faoliyati o'rtasida uyg'unlik namoyon bo'ladi.
7. Navro'z bayrami barchamiz uchun qadrli va aziz bayramdir. Bayram barchamizga qutluq kelsin.
- 1-boshlovchi: Tabiatda bugun o'tli uyg'onish,
Nur bilan kiradi dilga orzular.
Yuraklar shodlikidan etadi xonish,
Labdan labga ko'char mayin kulgular.
- 2-boshlovchi: Quyosh kirib kelar har xonadonga,
Barobar ulashar yog'dusin bugun.
Quyosh tabassumi etar jahonga,
Ushalar dildagi orzular bugun.
- 1-boshlovchi: Assalomu alaykum, qadrli ustozlar, muhtaram mehmonlar, aziz o'quvchilar! Mana o'lkamizga fasllar kelinchagi bo'lmish Navro'z ayyomi, bahor bayrami kirib keldi. Soylarda buloq suvlari jildiraydi. Kurtak yozayotgan, daraxtlarning shoxlarida sayroqi qushlar biri-biriga navbat bermay chug' urlashadi. Tog' etaklari, cho'pon yaylovlari, bog'bonning bog'i yashil maysalardan libos kiymoqda.
- 2-boshlovchi: Ha, kelinchaklar sumbul sochlariga chuchmomalardan chambarak izlaydi. Doshqozonlar osilgan, odamlar g'uj-g'uj. Ona allasi singari mayin yallalar quloqqa chalinadi. Qisqasi, hamma narsa o'zgacha tarovatda. Chunki, Navro'z o'lkamiz bo'ylab kezmoqda. Navro'z ayyomingiz muborak bo'lsin!
- 1-boshlovchi: Bahor bilan ayolni egizak, deyishadi. Shu bois bayram yanada qadrlidir.
- 2-boshlovchi: Ko'klam nafasi ufurib turgan davramizga xush kelibsiz, muhtaram tomoshabinlar, qadamlaringizga hasanot!
- 1-boshlovchi: Dimoqqa yalpizlar nafasi urar,
Yurakda muattar chechaklar kular,
Bir suluv kelinchak salomga kelar,
Ostonaga bosh ur, aziz mehmonim,
Navro'zing muborak, O'zbekistonim!
- 2-boshlovchi: 6-D sinf o'quvchilari sizlar uchun "Navro'z kelibon" qo'shig'iga raqs tayyorlab kelishgan. Marhamat, tinglab tomosha qiling.

1-boshlovchi: Mana, bugun diyorimizda uyg'onish fasli - Yangi yilning muqaddimasi - Navro'zi olam! Navro'z asrlar davomida xalqimiz uchun, biz uchun ezgulik, go'zallik, yorug' orzu-umidlarning kurtak otgan payti bo'lib kelgan va doimo shunday bo'lib qolajak!

2-boshlovchi: Navro'z, bu-shodlik, tinchlik, hamkorlik, mustaqillikning qaldirg'ochi, bahorning elchisidir. Bu-ulug'lanish, insonni e'zozlash hamda insonning umriga umr qo'shish, bir yilga yashartirish demakdir.

1-boshlovchi: : Navro'z bizlar kimlarning avlodи ekanimizni, qanday ulug' va buyuk meros vorislari ekanimizni jumlai jahonga yaqqol namoyon qiladigan

ma'naviy bir ko'zgudir.

2-boshlovchi: Turnalar yurtiga qaytgani kabi,

Bag'ringga qaytmoqda alyor-baytlaring.

Moziydan xayolchan ko'rinish berar

Ming shukur, tabarruk, ulug' zotlarin!

Buyuk daholarni bergen bo'stonim,

Yangi yiling qutlug' , O'zbekistonim!

1-boshlovchi: Endigi navbat "Navro'z" haqidagi qiziqarli ma'lumotlarga

1-boshlovchi: Chakkasiga gul taqib, daraxtlarga dur taqib, kirib keldi Navro'zim, kulib keldi Navro'zim. Har go'shada Navro'z taomlari - halim,

ko'k somsa, ko'k chuchvara, sumalaklar pishirilmoqda. Bu - yillar osha, asrlar osha har yili takrorlanadigan boqiy an'analarimiz - qadriyatlarimizdir.

2-boshlovchi: Doshqozonda sumalak,

Boychechaklar xush darak.

Bolalar yayrashadi,

Qo'shiqlar yangrashadi.

1-boshlovchi: Bobolar halim solar,

Latifa aytib tolar.

Ichakuzdi hazillar,

Qiziydi sho'x bazmlar.

1-boshlovchi: Endi mening boshlovchi sherigim Abdurashid "Sumalakdan tosh topdim" qo'shig'ini aytib beradilar.

1-boshlovchi: Boychechak chiqibdi , bugun Navro'z ekan!

Hamma bir-biriga jigarso'z ekan.

Olam ham barobar kecha-kunduz ekan,

Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan!

2-boshlovchi: Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy bobo!

Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy momo!

Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy Ona!

Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan!

1-boshlovchi: Hoy, bog'bon bobo, niholga bersin Baraka!

Hoy, dehqon bobo, dalangga bersin Baraka!

Hoy, cho'pon bobo, qo'rangga bersin Baraka!

Boychechak chiqibdi , bugun Navro'z ekan!

2-boshlovchi: Qo'shiq, "Boychechak". Ijro etishadi 6-d sinf o'quvchilari

1-boshlovchi: Baxor gullaridan guldasta sizga

Chin qalbim tabrigi payvasta sizga

Bir asr yashanggu, ya'na nim chorak

NAVRO'ZI OLAM bo'lsin muborak

2-boshlovchi: Soginchlardan yasay sizga guldasta

Guldasta qilib qalbim payvasta

Oislardan turib deyman men asta

Navrozi ayyom muborak bo'lsin!

1-boshlovchi: Endigi navbat "Bahor" va "Navro'z" haqidagi she'rlarga

2-boshlovchi: Davramizga yanada ko'tarinkilik olib kirish maqsadida 6-d sinf qizlari "Navro'z" qo'shig'iga raqs tayyorlab kelishgan. Marhamat, tinglab tomosha qiling.

2-boshlovchi: Kayfiyatlar yaxshimi? Endi sizlar uchun yigitlarimiz “Bahoriy hangomalar”dan ijro etishadi. Yoqsa qarsak chalasiz.

1-boshlovchi: Navro’z xalqimiz uchun poklanish, uyg’onish, yangilanish va ma’naviy kamol topish bayrami bo’lib qolmoqda. Qadimi Navro’z o’zining buyuk mohiyatini saqlab, mustaqillik g’oyasi bilan boyib, ahillik, totuvlik, xalqlarning birdamligi va do’stligi bayramiga ham aylandi.

2-boshlovchi: Har bir xalqning o’z ma’naviyati, insoniy qadriyatlari, urf-odatlari, an’analari, buyuk me’rosi bor. Navro~~z~~- o’zbek va Sharq xalqlarining ana shunday ma’naviyat, qadriyatlар bayrami merosi bo’lib, u insonni yuksak vatanparvarlik, mehnatsevarlik, buniyodkorlik, do’stlik, mehr-oqibat,ezgulik, adolat va tinchlik ruhida tarbiyalaydi.

1-boshlovchi:- Mana, barchamizning, kayfiyatimiz - xush, ko~~z~~rganning ko’zi quvnaydi. Ana shunday tabassum, nazokat, nafosat har damda hammamizga, hammangizga yor bo’lsin!

2-boshlovchi: Navro’zi olam muborak, aziz do’star! Bayram tadbirlarimiz har go’shada, har ko’ngilda davom etaversin.

Navro’z - umumxalq bayrami (tadbir senariysi)

1-boshlovchi:

Bugun shodiyona Navro’zi olam,
Orziqib kutilgan navbahor to’yi!
Assalom yangi yil! Assalom bayram!
Senga atalgusi yuraklar kuyi.

2-boshlovchi:

Yuraklarga solib hayajon,
Eshik qoqar biz kutgan mehmon.
Yelkasida bayram libosi,
Qo’llarida ochil dasturxon.
Dala dashtga bag`ishlab chiroy,
Yurtga keldi yana ko’klamoy.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, davramizga tashrif buyurgan aziz ustozlar va qadrli o’quvchilar, bahor ayyomingiz muborak bo’lsin.

2-boshlovchi: Assalomu alaykum, shodiyonamiz mehmonlari va ishtirokchilari. Sizlarni Navro’z - bahor bayrami, yasharish, poklanish bayrami bilan chin dildan tabriklaymiz. Bugungi kuy-qo’shiqlarimiz sizlar uchun.

1-boshlovchi:

Darhaqiqat, Navro’z – yashnash va yasharish bayrami, tabiatning uyg’onishiga guvoh bo’lmish yangi kunning boshlanishidir.

2-boshlovchi:

Ha, Navro’z bayrami xalqimizning qadimiyligi va o’lmas an’analarni o’zida jo qilgan milliy bayramimizdir. Bugungi shodiyona kun bilan barchangizni yana bir bor tabriklab, tadbirni olib berish uchun so’z navbatini maktab _____ ustozga bersak.

1-boshlovchi:

Chechaklar barq urib, keldi Navro’zim,
Don-dunim, osh-nonim ham rizqu ro’zim,
Jahonga tik boqqan sen qora ko’zim,
Xush kelding Navro’zim, dillarga hamdam,

Bizning quvonchlardan quvonsin olam.

2-boshlovchi:

Navbatni 9-”V” sinf o’quvchisi Shodiyeva Sabohat tayyorlab kelgan ”Milliy an’analarimiz faxrimizdir” deb nomlangan ma’ruzaga beramiz.

So’ng O’quvchi qizlar tomonidan raqs ijro etiladi.

1-boshlovchi:

Bugun Navro’z bayrami

Zo'r tantana, hamma shod.

Ona yurtga quvnaymiz,

Baxtiyormiz umrbod.

2-boshlovchi:

Yayrab-quvnar bolalar,

Qaldirg’ochday chug’urlab.

Navro’z keldi yurtimga.

Dalalarga shoshaylik,

Keling do’stlar barchamiz

Kuy, qo’shiqlar kuylaylik.

1-boshlovchi: Menimcha, bugungi bayramni ko’tarinki ruhda o’tkazish uchun har bir sinf o’quvchilar astoydil tayyorgarlik ko’rgan bo’lsa ajabmas. Navbatni Navro’z haqidagi she’rlarga bersak. Marhamat tinglab dam oling.

7-sinf o’quvchilardan terma chiqadi. Jami 7 kishi.

Qo’shiq. 9-“B” sinf Xurramov Jahongir. “Hay mayli”

1-boshlovchi:

Sening iltifoting, ehsoning bilan

Do’stlar diydoriga bir-bir to’yaylik

Adirlar qo’ynida aytib sho’x o’lan

Shaddod bolakayday yayrab kulaylik.

2-boshlovchi:

Yana bahor keldi, yana olamda,

Ajib bir go’zallk, ajib bir hayot.

Men seni qutlayman shu ulug’ damda,

Ulug’ yelkadoshim muzaffar hayot.

1-boshlovchi:

Navbat 9-sinf o’quvchilarij ijrasi “Sen bahorni sog’inmadingmi?” she’riga. Marhamat.

Qo’shiq. 8-“A” sinf Sayfullayev Abbos. “Chaman ichinda bir gul”. Raqsida qizlar. 6-“A”

1-boshlovchi: Bu tong egnida atlasdan ko’ylak,

Shafaqqa o’ralgan qizlarday gulgun.

Ilk bora ko’z ochib chiqqan boychechak,

Sanamlar qo’liga intizor bu kun.

2-boshlovchi: Bu kun go’zallikning qutlug’ ayyomi

Qizlarning ko’klamga mosligidir bu.

Yurakda limmo-lim muhabbat jomi

Bahor kelganining rostligidir bu.

1-boshlovchi: Aziz o’quvchilar, hozir sizning olqishlaringiz ostida davramizga yanada fayz qo’shishi uchun “Bahoroy” ni taklif etsak. Marhamat!

2-boshlovchi: Olqishlab turamiz o’quvchilar.

Bahor valsi musiqa ostida davraga “Bahoroy” kirib keladi. Davrani bir aylanib chiqib boshlovchilar oldiga keladi.

2-boshlovchi: Xush kelibsan, bahorim,

Bu diyorga marhabo!

Shuhrati olamga ketgan

Gul diyorga marhabo!

Bahoroy:

Assalomu aleykum meni intiq bo'lib kutgan azizlarim, mehribonlarim! Barchangizga qorli tog'lardan, qir-adirlardan, keng dalalaru chaman bog'lardan salom keltirdim. Sizlarni shodlik va mehnat bayrami, nafosat va go'zallik ayyomi – Navro'zi ayyom bilan chin qalbdan tabriklayman va huzuringizga Navro'zoyni chorlayman.

1-boshlovchi: Quyosh tegrasida aylanib falak,

Tabiat bezanib misli kelinchak.

Bugun yuz ochibdi turfa xil chechak

Assalom, Yangi kun, assalom Navro'z!

2-boshlovchi:

Yana tenglashibdi kecha va kunduz

Ko'kda nur taratar yarqirab yulduz.

Lablarda tabassum, aytib shirin so'z

Assalom, Yangi kun, assalom Navro'z!

«Navro'zim» qo'shig'i ostida sahnaga "Navro'zoy" o'ynab-quvnab kirib keladi. Sahnaga 1-sinf boshlang'ich sinf o'quvchilari raqsga tushadi. Davrani aylanib Bahoroy va boshlovchilarning oldiga keladi.

Navro'zoy:

Salom, mening qadrdonlarim! Ollohga shukronalar bo'lsin siz-la diydor nasib etganiga. Mana, 4 ming yil bo'layaptiki, sizlar bilan birmagan. Yovuz niyatililar meni yo'qotmoqchi, yo'q qilmoqchi bo'ldilar. Ammo ezgulik doimo g'alaba qiladi. Mustaqillik sharofati bilan men yana qad rostladim va bugun huzuringizda turib, ezgulik va poklanish bayrami bilan sizni qutlash baxtidan mammunman.

Bahoroy: Dimoqqa yalpixlar nafasi urar,

Yurakda muattar chechaklar kular.

Bir suluv kelinchak salomga kelar.

Qadaming qutlug' bo'lsin, aziz mehmonim,

Navro'zing muborak, O'zbekistonim!

Navro'zoy:

Istiqlol tongida dillar chulg'ondi,

Yuraklar to'lg'onib, dillar uyg'ondi.

Navro'z navolari jonni yayratib,

Ona yurt og'ushi gulga burkandi.

Hurlik Navro'zida aytingiz alyor,

Alyorlarga jo'r bo'lsin soz ila ash'or.

2-boshlovchi: Rahmat sizga Bahoroy va Navro'zoy. Sizlarning tashrifingiz barchani quvontirib yubordi. Endi tadbirimizni tomosha qilib o'quvchilarimizning chiqishlarini tomosha qilsak.

1-boshlovchi:

Bahor keldi,

Gul ochildi,

Nur sochildi borliqqa.

Oh qandayin O'yin-kulgu,

Yurak to`ldi shodlikka.

2-boshlovchi:

Qayga boqsang

Bir go'zallik:

Ko'k shohiga o'ralgan.

Qir, adirlar

Yonbag'riga

Qirmiz gilam to'shalgan.

1-boshlovchi:

Navro'z kunlaridagi shodiyonalik, tabiatda yuz beradigan uyg'onish , go'zal manzaralarning

jonli va yorqin manzarasi xalq qo'shiqlarida kuylangan.

2-boshlovchi:

Marhamat tinglaymiz. Xalq laparlari – yigit va qizlar ijrosida. 9-B

Laparlar tugagandan so'ng "Xorazm lazgisi" raqsi. 8-G

1-boshlovchi:

Tabiatda bugun o'tli uyg'onish.

Nur bilan kiradi dilga orzular.

Yurakda shodlik etadi xonish

Labdan labga ko'char mayin kulgilar.

2-boshlovchi:

Quyosh kirib kelar, ham xonadonga

Barobar ulashar yog'dusin bugun.

Quyosh tabassum etar jahonga

Ushalar dildagi orzular bugun

1-boshlovchi:

Barchamizga ma'lumki, yurtboshimiz tomonidan 2016-yil – "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilindi. Bu esa biz yoshlarga berilayotgan g'amxo'rlikning yana bir ifodasi bo'libgina qolmay, sport bilan shug'ullanishimiz davlatimiz e'tiborida turganligini chuqr his etishimiz lozim. Va shunday ekan biz barchamiz "Sport bilan shug'ullanishni" hayotiy shiorimiz deb bilmog'imiz kerak.

2-boshlovchi:

Navbatni sportchi o'quvchilarning chiqishlariga hamda xalq o'yinlaridan ko'rinishlarga beramiz.

O'quvchilar Sportchilar musiqasi sadosi ostida turli ko'rinish chiqishlarini namoyish etadilar.

Milliy o'yinlar ko'rsatadilar (chillak, kurash, varrak uchirish, arqon tortish)

1-boshlovchi: Tabrik uchun so'z _____ ga

2-boshlovchi: Azizlar! Barchangizni yana bir bora nafosat va go'zallik ayyomi bilan chin dildan samimiyl qutlaymiz. Yangi yil barchamizga olam-olam quvonch va shodlik, yurtimizga to'kinlik va farovonlik olib kelsin. Sog'-salomatlikda uchrashishni Olloh nasib aylasini. Endi barcha-barchani sho'x va ajoyib raqslarga taklif etamiz. E'tiboringiz uchun rahmat.

Navro'z - bahor bayrami (boslang'ich sinflar uchun tadbir)

Sahna bayramona bezatilgan, gullar, kaldirgochlar, daraxtlar, urtada «Assalom Navruz» deb yozilgan yozma. Sahnaga milliy musiqa ostida jarchi kirib keladi.

Sho'x musiqa ostida bolalar zalga karsaklar bilan kirib keladilar.

Jarchi: Bor-xo, kel-xo

Hamalim-xa, amalim-xa.

Sayl bayda tezda yetib kel

Uynagani kel, kuylagani kel.

Kuvnagani kel, kelmasang ham

Kel-oooooooooooo!

Boshlovchi: Xa, xa nima gap tinchlikmi uzi?

Jarchi: Elimizga Navruzi olam keldi, xali xabaringiz yukmi?

Boshlovchi: Bulmasa urtoklaringni hammasini chakir, boychechak topaylik. Boychechak kuklamning ilk elchisi. Birgalikda boychechakni olib xonadonlarga kirib olgan kishni xaydaylik. Uni omonlik-somonlik deb kuzlariga surtish uchun momolarimiz va bobolarimizga yetkazaylik.

Boshlovchi: Boychechak chikibdi bugun Navruz ekan.

Hamma bir-biriga jigar Suz ekan.

Olam ham barobar kecha-kunduz ekan.

Boychechak chikibdi bugun Navruz ekan.

Assalom yuzlari yorug Navruzim

Assalom tong kabi otgan Navruzim

«NAVRUZIM SHO’X SOZIM» ASHULASI.

Ayamajuz kampir: Xa xali boychechak termokchimisizlar, chuchvarani xom sanabsizlar. Terib bupsiz. Men hozir Sarik Sumalak, Axmon Daxmon, Xezim Kurbon, Nozim Navruz kabi do’stlarimni shunday ishga solayki, nish urayotgan kukatlaru maysa giyoxlar unmay kuysin. Axir fasllar ichida eng a’loasi bulgan kish tugab kolsa biz nima qilamiz. Kelinglar meni yordamchilarium uz xunaringizni kursating.

Buron: Xukmimni utkazaman, zaxmatlar yetkazaman.

Jarchi: Yuk, yuk buron shoshmagin kup xaddingdan oshmagin.

kachon yengolmaysan zaminni ololmaysan.

Urtoklar birgalikda Ayamajuzni xaydaylik

Do’stleri bilan birga zamindan chikaraylik

Ushanda kunlar isib yurtda mul-kul buladi

Maysalar ham nish urib baxor kulib keladi.

Kani-kani boshladik.

(musiqa ostida xaydashadi, musiqa ostida kuyosh kirib keladi)

Kuyosh: Salom aziz bolalarim gulu-rayxon lolalarim

Navruzingiz muborak bayram shodlik muborak

Men kuyoshman nurlarim bilan ilik, issik taftlarim bilan

Xar tong men ham shoshaman yayrab nurim sochaman.

Baxor keldi zaminga daraxtlaru gullarga

Insonu-jonzotlarga ayniksa Dehqonlarga

(Kuyosh bobo boychechak yotgan joydan aylanib utadi. Asta-sekin issik taftidan ok choyshab kor tagida yotgan boychechak kuzgala boshlaydi.)

Jarchi: Anna kuyosh bobo nuringizdan boychechak ham uygondi.

Bola: Boychechakning bolasi kulogida donasi

Donasini olaylik yugurib chiksin onasi.

Bola: Boychechak gul faslidir Navruz faslin naslidir.

Boychechagim bochechak kutib olay xushchakchak.

«BOYCHECHAK» ASHULASI.

Boshlovchi: Kup utmasdan buron tinib YAna billurdek balkdi

Jonivorlar yayrab yashnab kizgaldoklar zarmunchok takdi.

Barcha xushnud RAQSIga chorlar surnayning sho’x sadosi

Navruzung shodliklarin yukdir cheki adosi.

«SURNAY NAVOSI» RAQSI.

Boshlovchi: Salkin saxarlarda bodom gulida

Binafsha labida yerlarda baxor

Kushlarning parvozi yellarning nozi

Baxmal vodiylarda kirlada baxor.

Aziz bolajonlar va mehmonlar davramizga guzal Baxoroy tashrif buyuryapti. Kani Baxoroyni karsaklar bilan kutib olaylik.

«BAXOR VALSI» MUSIQASI.

Boshlovchi: Xush kelibsan guzal baxor chin kungildan assalom

Xush kelibsan YAna bir bor sengadir shirin kalom.

Baxoroy: Xush vakt buling bolalar gulu rayxon lolalar.

Navruzingiz muborak bayram shodlik muborak.

Men Baxoroy gullarim bilan ilik kuyosh nurlarim bilan

Kushik aytib sho’x irmoklarim yelday uynab Kuk yaproklarim

Mehmon bo’lib keldim bolalar olib keldim gulu lolalarim.

Bolajonlar men sizlarga topishmoklar olib kelganman men ularsiz guzal Baxoroy bula olmayman. Topasizlarmi?

TOPIshmoklar.

1. Toshu kumlarni surib togdan kelar yugurib. (Suv)
2. Baxorda usib chikdim yam-yashil bo'lib chikdi. (Maysa)
3. Nur sochar utli yashar bokay desang kuz kamashar. (Kuyosh)
4. Uzi kizil guzal biram, kirga yozar guzal gilam. (Gullolalar).
5. Kulsiz oyoksiz eshik ochar. (SHamol)
6. U tushganda dala - qir kuladi qiqir-qiqir. (YOmgor)

Raxmat bolajonlar judayam topagon ekansizlar. Bolajonlar men yanachi sizlarga gullarni olib kelganman ular sirli gapira olishadi.

(«Uzbekiston gulzor» musiqasiga gullar kirib kelib saf tortib turadilar)

Hamma gullar: Keldi baxor keldi baxor biz baxorinng elchisi

Bizni baxor boshlab keldi biz baxorning elchisi

CHuchmoma: ioiMen utlokning kiziman onam baxor gullola

Men baxor yulduziman men chuchmoma chuchmoma.

Boychechak: Ochidimi boychechak endi xaryon gul demak.

CHunki baxor elchisi men mittivoy boychechak

Kokigul: Kimniki bor chorbogi usib yotar gulkoki

Barglarim kungarador sap-sarik gullarim bor.

Binafsha: Binafshaman binafsha navbaxorning guliman.

Erta baxor ochilib sizni xursand qilaman.

Lola: Bargim yashil va tarang shapalokday xar biri,

Lolaga siz bir karang gullarning eng dilgiri.

Atirgal: Atirgulman atirgul, yayrab, kuvnab uynab kul.

Mendan yasab guldasta meni hamma sevadi.

Gullar ichra uktamman, xar insonga hamdamman.

Ana shunday atirman hamma yokka tatirman.

Kungirokgul: Buyim baland kungirokgul bargim yashil gulim kukich

SHamol deydi kulib nukul gul yuzingdan bergil upich.

«GULLAR RAQSII».

«BAXOR GULLAR» ASHULA.

Bola: Baxor keldi gulbaxor etagida gul tutib

Bizga intik lolazor kirlar bagrida kutib

Bola: Atrof tula xar xil gul chuchmomayu, binafsha

Bizning kuklamlar butkul chiroylidir hamisha

Bola: Gul bogcham keng kuchogi jajji gulga tulibdi.

Kumush duppilar kiyib bochechaklar kulibdi.

Bola: Kuyosh jilmayar YAna boshimizdan sochib nur

Gullari kup Vatanda xayotimiz kuvnok, xur.

Baxoroy: Bolajonlar endi lola sayliga marhamat.

«LOLA SAYRI» ASHULA.

Baxoroy: Bolajonlar ulkamizga men bilan birgalikda kushlar ham uchib kelishgan. Kim kushlar tugrisida she'rlar biladi.

Bola: Baxor keldi elimizga kuvonch tului dilimizga,

Keling kushlar, uching kushlar, bizlar do'stmiz doim sizga.

Bola: Baxorni kudik juda soginchimiz gul buldi.

Kushlar sayragan chogda kalblar shodlikka tului.

Baxoroy: Endi men sizlarga kushlar xakida topishmoklar aytaman.

Kasbi doim takir-tukir, kayda ilon kursa chukir. (laylak)

Laylak: Men kushlarga sozanda soz chalaman azonda.

Dala dashtda yuraman yoz gashtini suraman.

Baxoroy: Gul ustida usta ashulachi. (bulbul)
Bulbul: Bulbul derlar otimni surishtirsang otimni
Mittigina kushchaman oshiyonim bog-chaman
Sizga aytSAM ochigin men guzallik oshigi.
Baxoroy: O'yning shiftida uyi, kuylab berar xar kuni
Baxorda kutib olib kuzatamiz kuz kuni (kaldirgoch)
Kaldirgoch: Kaldirgochman kaldirgoch eshicingni tezrok och
Uyga kirib dam olay sung uzimga in solay
Aslida kuruvchiman pashshani kiruvchiman
Odamlarga kulta baxt men ham shodman hamma vakt
Baxoroy: Baxorda olib kuchok kukka sodi argimchok. (turna)
Turna: Men turnaman turnaman makonim issik ulka
Solib doim argimchok kur-kur deb utamiz
Tizilishib xar safar baxor bulsa kaytamiz
Baxoroy: Aziz bolajonlar kushlarni doim avaylab-asrang. Ular xech ham nobud bulmasin.
Bola: Kirlaru adirlada, tol novdasida
Ariklar labida kuklarda Navruz
Engil shabodaning ufirishida
Kushlar parvozida, dillarda Navruz!
Bola: Suv shildirashida, yalpiz bargida
Bodom kurtagida yerlarda Navruz!
Toglarda, boglarda gul gunchasida
Bepoyon dalalar yellarda Navruz!
Bola: Do'stlar gurungiyu kulgularida
Kushiklar jarangi RAQSIda Navruz!
Momolar duosiyu fotixasida
Kungil sururida dillarda Navruz!
«KELINCHAK» RAQSI.
«KELDI YANA BAXOROV» ASHULASI.
Boshlovchi: Bolalar davramizga Dehqonbobo kelyaptilar!
«DILXIROJ» MUSIQASI.
Dehqonbobo: Salom bolalar Kuzi munchoklar
Keltirdim sizga kukat va gullar
Eksangiz uni yashnagay dillar.
Navruzingiz muborak bayram shodlik muborak!
Boshlovchi: Raxmat bobojon sizning bayramingiz ham muborak bulsin.
Dehqonbobo: Bolalar bir topishmogim bor topasizlarmi?
Bolalar: Topamiz!
Dehqonbobo: Kecha-kunduz kaynaydi dillarni u xushlaydi
Vitaminga juda boy yesang bilasan misli toy.
Bolalar: Sumalak!
Dehqonbobo: Judayam tugri bolajonlar. Bu sumalak. Kani menga Kim sumalak tugrisida she'rlar
va ashulalar aytib beradi.
Bola: Doshkozonda kaynagan yesang taning yayragan
Elni birga jamlagan do'st kadrdon aylagan
Sumalagu, sumalak!
Bola: Tanga darmon sumalak dilga armon sumalak
Eganlar bilar ta'min bordir yuz xil vitamin
Sumalagu.sumalak!
Bola: Buvim soldi sumalak pishirolmay biz xalak
Suyulib ketgan ekan, un tashladik bir chelak.
Mexnat Zoe ketmapti shirin bupti sumalak

Endi biz kushnilarga sumalak tashib xalak.

«SUMALAK» ASHULASI.

Dehqonbobo: E...Raxmat bolajonlar! Meni xushnud ettinglar. Endichi bolajonlar «Kim chakkon» uyinini uynaymiz. Men sizlarga momolarimiz pishirgan sumalakdan olib kelganman. SHu sumalakni Kim birinchi yalab tugatsa u golib buladi.

«KIM CHAKKON» UYINI.

Dehqonbobo: Raxmat bolajonlar! Judayam chakon, kuvnok, zukko bolalar ekansizlar. Men ham boray, ishlar boshlanyapti. Tuprok ilib koldi. Dalalar meni chorlamokda. Baxor esa kutib turmaydi. Sizlarning rizku - ruzingiz baraka urugini Ayni yerga sepish vakti. Kani Baxoroy yuring ulkamizni kezaylik butun borlikni jonlantiraylik. Xayr bolajonlar kuz faslida uchrashguncha xayr!!!

Bola: Bogda uynaymiz kuvnab gul tutadi gulbaxor

SHu yashnagan Vatanda biz a badiy baxtiyor.

Bola: Bogchamizning bogida kul ushlashib uynaymiz,

Vatanimiz sha'niin kushik qilib kuylaymiz!

«YURTIMDA BAYRAM BULSIN» ASHULA

Navro’z – sevimli bayram (maktabgacha ta’lim muassasalari uchun tadbir)

Zal bayrami bezatilgan. “CHamanda gul” (o’zbek xalq musiqasi) kuyi yangoraydi. Zalga quvnab, o’rtta guruh bolalari kirib keladilar.

BoShlovChi:

Maysa boShin ko’tardi yerdan,

Gulbahordan bermoqda darak.

QuShlar qo’Shiq, soz kuyi bilan

Gulbahordan bermoqda darak.

Assalomu alaykum, Shirin-Shakar o’g’il-qizlarim! Atrofga bir nazar taShlang. Qanday Chiroyli! Tabiat yaShil libosga o’rangan. Yilning eng Chiroyli faslida qir-adirlarda ChuChmoma, boyCheChak, lolaqizg’aldoqlar oChilgan. O’lkamizda bahor kezmoqda. Bu faslda qanday bayramni niShonlaymiz?

Bolalalar: - Navro’z bayramini niShonlaymiz.

BoShlovChi: - Juda to’g’ri, Navro’zni har yili zo’r quvonCh, katta tayyorgarlik bilan kutib oliSh elimizning eng yaxShi odatlaridan biri bo’lib qolgan. Qo’Shiqlar aytib, raqsga tuShganlar. XursandChilik qilganlar.

Karnay-surnay sadosi yangraydi. Beqasam Chopon kiyib, beliga qiyiqCha bog’lagan, oyog’iga etikCha kiygan bola ot (butaforiya) minib zalga kiradi.

Bola: - Ho-oy, bolalaru, bolalar!

EShitmadim demanglar! Bugun bog’Chamizda Navro’z bayramiga bag’iShlangan katta sayl bo’ladi. Hammangizni saylga taklif etamiz. (JarChi Chiqib ketadi).

BoShlovChi: - Voy, qanday yaxShi bolalar. Mana, biz ham saylda qatnaShadigan bo’ldik. Endi navbat, sizlarga. Marhamat bolalar!

Bola: -Biz bahorda Chiqamiz, Bola: - Dalalarda oChildi,

Dalalarga, bog’larga. GunafShalar, lolalar.

Gullolalar oChilgan, Bizga uChib keliShdi.

Ko’m-ko’k maysazorga. Mayna, bulbul, sa’valar.

Bola: - Bir tomondan qizChalar,

Gullar terib o’ynaShar.

Bir tomonda quShChalar,

Bizni qutlab sayraShar.

Bola: - Qo'llarida soz bilan, Bahorni kuting bog'da,
Gul-g'unCha pardoz bilan. Bog' emas dala joyda.
UChib turna g'oz bilan, QuShlar sayralar Chog'da,
O'ljamga bahor keldi. Sevimli bahor keldi.
Bolalar "Gullar" qo'Shig'ini kuylaydilar. (J.Najmiddinov musiqasi). Qizlar qo'lda gullar bilan
raqsga tuShadilar.

BoShlovChi: - Raxmat qizlar, juda Chiroyli raqsga tuShdingiz.

Bola: - Bahor keldi, gulbahor, Bola: - BinafShaxon, binafSha,
Etagida gul tutib. KuliShlaring Chiroyli. Bizga intiq lolazor, Bog'imizda oChilib,
Qirlar bag'rida kutib. TuriShlaring Chiroyli.

Bola: - Atrof to'la har xil gul Bola: - Hamma Chiqar dalaga,
CHuChmomayu, binafSha BinafShalar tergani.
Bizning ko'klamalar butkul Men ham terdim guldasta,
Chiroylidir hamisha. Onamizga bergani.

Bolalar tarafma-taraf bo'lib, "Bizdan sizga kim kerak?" aytim-o'yinini aytiShuv tarzida
kuylaydilar. (Y.A.Qurbonov She'ri, M.Nasimov musiqasi).

Shu payt momaqaldiroq gumburlaydi.

BoShlovChi: - bolajonlar, eShitmayapsizmi, momaqaldiroq gumbirlayapti. Hozir yomg'ir
quyadi. Tezroq panaga o'tamiz.

"YOmg'ir-yog'aloq" o'zbek xalq bolalar qo'Shig'ini kuylaydilar.

BoShlovChi: - Mana, bolalar yomg'ir ham yog'ib o'tdi. Qarang, quyoSh Charaqlab Chiqdi. Voy,
eShik taqillayapti. QarayChi kim ekan?

(Kamalak qizChani boShlab kiradi). Bolajonlar, Kamalakoy mehmon bo'lib kelibdi. Kiraver,
Kamalakoy!

Kamalak: - Assalomu alaykum, bolalar!

Hamma: - Vaalaykum assalom, Kamalakoy!

BoShlovChi: - Kelganing juda yaxShi bo'ldi-da, Kamalakoy. Bizning bog'Chamizda Navro'z
bayrami sayli bo'layapti. Bolalar, Kamalakning ko'ylagiga qaranglar juda rang-barang ekan-a?

Bolalar: - Oq, qizil, sariq, yaShil ... Lentasi ham turli rangda ekan.

Kamalak: - Sizlarni, Navro'z – bahor bayrami bilan tabriklayman! Sizlarga gulChambarlar, tol
bargidan soChbargaklar keltirdim, mana taqib olinglar.

Bolalar boShlariga gulChambarlar, soChbargaklarni taqadilar. Kamalak bilan birgalikda qo'Shiq
kuylaydilar, o'rtada ikkita qizi raqsga tuShadi.

"Qo'Shig'imiz avjida" aytim-o'yinini ijro etadilar. (G.Komilov She'ri, T.Asimov musiqasi).

Qo'Shig'imiz avjida,
Laylum-lalalum.
O'rta ga tuSh Mavjuda,
Laylum-lalalum.
Bizlarga jo'r bo'linglar,
Laylum-lalalum.

SHe'r: "CHuChmoma"

Bola: - XipCha belli ey, ko'kat,
Qaysi bog'ning gulisan?
OChig'ini bizga ayt,
Qay fasl sunbulisan?
Men o'tloqning qiziman,
Onam bahor-ChuChmoma.
Men bahor yulduziman,
Men – ChuChmoma, ChuChmoma!

"Baxtli erkatoy" xazil qo'Shig'ini kuyladilar. (T.ToShmatov musiqasi).

BoShlovChi: - Bolalar, endi musobaqa o'ynaymiz. Avval qizlar, so'ngra o'g'il bolalar musiqaga
mos raqsga tuShadilar. Marhamat qizlar!

Kamalak: - Qizlar ham, o'g'il bolalar ham musiqaga mos raqsga tuShdilar. Rahmat, do'stlarim.
Endi men boray.

SHu payt patnisda ko'k somsolar ko'tarib, "CHo'pon bola" kiradi.

CHo'pon bola: - Assalomu alaykum!

Hamma: - Assalomu alaykum!

CHo'pon bola: - Meni tanimadingizlar-a? Men Cho'pon bola bo'laman! Dadam, oyim vaakalarim bilan anavi qirda yaShaymiz, o'Sha yerda qo'y boqamiz. Uzoqdan sizlarni saylga Chiqqanligingizni ko'rib qoldik. Oyimlar ko'k somsalar yopib, sumalak piShirib, sizlarga berib yubordilar.

BoShlovChi: - CHo'pon bola, sen juda vaqtida kelding-da. Mana, Kamalak ham Shu yerda.

CHo'pon bola: - Juda yaxShi. Hammamiz birgalikda ko'k somsa yeymiz. "CHamangul gul" kuyi yangraydi. Hammalari gilamChaga o'tirib, ko'k somsa va sumalakdan tanovul qiladilar.

Kamalak: - Bolalar, sizlarga katta rahmat. Sayl menga juda yoqdi. Endi har yili Navro'z bayramini sizlar bilan birga niShonlayman. Xayr bolalar!

CHo'pon bola ham xayrlaShib Chiqib ketadi.

Hamma: - Xayr Kamalak, xayr Cho'pon bola!

Bolalar uChtadan, to'rttadan, to'p-to'p bo'lib, qizlarning boShlarida gulChambar, soChbargak quvnaShib, sayl haqida gaplaShib Chiqib ketadilar.

Navro'z bayramiga noananaviy dars ishlanma

Maqsad: O'quvchilarga tabiatdagi o'zgarishlar, bahor fasli, Navro'z bayrami, milliy udumlar, urf- odatlар haqida ma'lumot berish. Ona tabiat go'zalliklaridan zavqla-nishga, xalq og'zaki ijodi namunalarini sevib o'rganishga undash. Vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish.

Sinf bayramona bezatilgan. "Navro'z" bayramiga bag`ishlab devoriy gazeta chiqarilgan. Tarbiyaviy soatni o`qituvchi ochib beradi.

1-boshlovch: Assalom davramizning siz aziz mehmonlari.

Assalom ilmu-fanning sohibu davronlari.

Mehribon buvujonu , onajonlar assalom,

Yuzlarida kulgu balqqan qizlarjonlar assalom.

2- boshlovchi: Xush kelibsan go'zal bahor

Chin ko`ngildan assalom

Xush kelibsan yana bir bor

Sengadir shirin kalom.

1-boshlovchi: Mana o'lkamizga zarg`aldoqlardan gulchambarlar taqib, xushro'y Navro'zi olam kelmoqda!

2-boshlovchi: Navro'z-bu yangi kun demakdir azal

Eski kundan shaksiz yangi kun afzal.

Shu kun kuy kuylaymiz, o'qiymiz g`azal.

U kelar yangicha rizqu -ro'z bilan

Assalom yoronlar,gul Navro'z bilan.

O`quvchi: Chakkasiga gul taqib

Kirib keldi Navro'zim

Daraxtlarga dur taqib

Kulib keldi Navro'zim.

Dala dashtda maysalar

Salom alik aytsalar.

Qanday go'zal ko'rinish,

Yashillikka cho'milish.

Doshqozonda sumalak
Boychechaklar xush darak.
Qizg`aldoq cho`g`day gilam.
Sevinchdan ko`zlarda nam.
Bolalar yayrashadi,
Qo`sishlar yangrashadi.
Momolarning dunyosi
Ijobatdir duosi.
Bobolar halim solar
Latifa aytib tolat
Ichakuzdi hazillar
Qiziydi sho`x bazmlar
Elga rizq- ro`z ulashib
Tandir nonin ushatib.
Yayrab keldi Navro`zim
Yashnab keldi Navro`zim.

1-boshlovchi: Bahor! Ona zamin borliqni barcha jonzotlarni, muborakbod etmoqda. Uning farzandi bo`lmish mo`tabar inson ham ko`hna Ona yerni hamisha sevib ar-doqlaydi. Odamlarga rizq nasiba olib kelgan bunyodkor bahor! Sening yaratuvchi qudra-tingga hech bir kuch bas kelolmaydi.

2-boshlovchi: Yil o`tib zamin uzra zarrin yellar esib yero- ko`kka jon bag`ishlab Navro`z keldi. Ushbu ulug` bayraming har gakgi tashrifi bir-biridan quvvatli, bahor qushlari, gullari kabi yangi va xilma –xildir.

O`quvchi: Azizlar, aytinglarchi, ushbu go`zal bayram qachondan boshlab nishinlanmoqda?
O`quvchi: Kelinglar, hozir Navro`z tarixi bilan tanishaylik.

Tarixing tavsifing tillarda doston.
Quyosh charaqlaydi, moviydir osmon.
Hofiz qo`sishq aytar, raqs tushar jonon.
Sevinch bag`ishlaysan keksayu yoshga
Navro`zjon bu galgi kelishing boshqa.
Bir yon katta kurash, bir yon ko`pkari.
Askiya , aytishuv, o`lanlar bari.
Yangalarning aytgan avjli yor-yori.
Sevinch bag`ishlaysan keksayu- yoshga
Navro`zjon bu galgi kelishing bashqa.
Shoirlarning aytar so`zi bo`lib kel.
Yaylovlarda qo`y-u qo`zi bo`lib kel.
Mayli dilbarlarning o`zi bo`lib kel.
Sevinch bag`ishlaysan keksayu- yoshga.
Navro`zjon bu galgi kelishing boshqa.

O`quvchi: Inson to nafas olarkan u kuy qo`sishsiz, sayroqi qushlarsiz, dala –bog`lar-siz, qirmizi lilalarsiz yashay olmaydi.

Qizlar: “ Bahor valsi “ raqsini ijro etadilar.
Navro`z tarixi. “Navro`z” fors tojikcha so`z bo`lib “ Yangi kun” degan ma`noni anglatadi. O`rta Osiyo va Yaqin shrq xalqlarining qadimiylar an`anaviy yangi yil bayrami hisoblanadi. Navro`z juda qadimdan, Islom dini qabul qilinmasdan 30 asr ilgari Ahomaniylar davridan nishonlana boshlagan. Navro`z bahorgi tun va kunning tengligiga, ya`ni 21-22 martga to`gri keladi.

O`quvchi: Yomg`ir savalar mayin.
Maysa yashnar kun sayin
Men ham endi o`ynayin
O`rtoqjonim bu Navro`z.
Marjon taqdi majnuntol

Arilar keltirar bol.
Lola peshvoz qaddi dol.
O`rtoqjonom bu Navro`z.
Qaynar shirin sumalak.
Tovlanar yoy kamalak
Gulga qo`nmish kapalak.
O`rtoqjonim bu Navro`z.
Olam gul ichra yashnar
Ming bir tovusga o`xhsar.
Yashil poyondoz to`shar, bu Navro`z.
1-boshlovchi: Navro`z-bu haqiqiy xalq bayrami. Navro`zda odamlar hovli-joylarni tozalaydilar, gullar ekadilar.
2-boshlovchi: Har bir xonadonda ko`k somsa, ko`k chuchvara, qatlama pishiriladi. Navro`z ayyomining o`ziga xos go`zal urf-odatlari asrlar osha bizlargacha yetib kelgan. Ularning ayrimlari bilan hozir tanishamiz.
1-qiz: Hayotingiz shirin bo`lsin, Muqaddassxon!
2-qiz: Sizniki ham shirin bo`lsin, Lazizaxon!
1-qiz: Har doim gulday ochilib yuring Dinoraxon!
2-qiz: Siz ham, Dilnozaxon!
Bu yil suvgaga serob bo`lsin. Hosilimiz mo`l bo`lsin. Elda tinchlik bo`lsin.
1-bola: Tongda bulbul taratdi,
Bir yoqimli hush navo.
Nazarimda bahorni
Olib keldi u go`yo.
Bulbuljon bahor qushi,
Bulbuljon Bahor o`zi.
Bulbul: Bulbul derlar otimni
Surishtirmang zotimni.
Mittigina qushchaman
Og`aynim bog`-u chaman.
1-bola: O`zing kichkina,
Ovozing yaxshi.
Qani bulbulcham
Bir sayrab berchi.
Bulbul: Mayli o`rtoqjon
Mayli sayrayman.
Ko`m-ko`k bog`ingda
Uchib yayrayman.
“Bulbulcham” qo`shig`i
1-boshlovchi: Boychechak chiqibdi, bugun Navro`z ekan.
Hamma bir-biriga jigar so`z ekan.
Olam ham barobar kecha-kunduz ekan.
Boychechak chiqibdi, bugun Navro`z ekan.
2-boshlovchi: Assalom, tong kabi otgan Navro`zim!
Assalom, yuzlari yorug` Navro`zim!
Bayramingiz muborak bo`lsin, aziz mehmonlar.
Yangi yilingiz muborak bo`lsin, hey bolajonlar!
Boychechak chiqibdi, bugun Navro`z ekan.
Bahoroy dugonalari bilan kirib keladi.
Hay-hay o`lan jon o`lan
Navro`z keldi yor-yor
Navro`zoyni kutgani.

Xalqim chiqdi or –yor.

Bahoroy: Assalomu-alaykum aziz mehmonlar!

Men bahorman, gullarim bilan ,

Iliq quyosh nurlarim bilan

Qo'shiq aytib sho'x irmoqlarim,

Yelday o'ynab, ko'k yaproqlarim.

Mahmon bo'lib keldim bolalar.

Olib keldim gulu lolalar.

Men Bahorman,, go`zal Bahorman,

Sizga sevinch bilan boqarman.

Men huzuringizga yolg'iz kelganiz yo`q. Bu dugonam Maysaxon, bu dugonam Suvsuluv, bu dugonam Guljon, bu dugonan Oftoboy. Men ularsiz go`zal "Bahor" bo`la olmayman. Hozir dugonalarim sizlarga topishmoqlar aytadilar, qani tipinglar-chi.

Suvsuluv: Tosh-u qumlarni surib,

Tog' dan kelar yugurib.

Maysaxon: Bahorda o`sib chiqdi.

Yam-yashil bo'lib chiqdi.

Oftoboy: Nur sochar,o`tli yashar.

Boqay desang ko`z qamashar.

Guljon: O`zi qizil, go`zal biram.

Qirga yozar go`zal gilam.

Bahoroy: Balli bolajonlar, to`g`ri topdingizlar.

1-boshlovchi: Rahmat Bahoroy, davramuzga chiroy qo`shdingizlar. Biz bilan birga bo`ling.

Otalari chiroyli yurtim,

Onalari chiroyli Yurtim.

Jannatmakon deydilar ajab.

Bog`-rog`lari chiroyli yurtim. 2-boshlovchi: Yigitlari chiroyli yurtim.

Gul qizlari chiroyli yurtim.

Aslo senga ko`zlar tegmasin.

Bayramlari chiroyli yurtim.

1-bola: Azal –azal Navro`zjon

Bayramlarning zo`rida.

Nuroniy chol- kampirlar

Turar davra to`rida.

Keling Navro`z sayliga,

Siz ham keeling mayliga.

2-bola: Navro`z nishonasi bu.

Bobodehqon ish boshlar.

Ezgu niyat bilan u.

Yeriga urug` tashlar.

Keling Navro`z sayliga,

Siz ham keling mayliga.

1-bola: Bizning elda bu ayyom,

Sumalaksiz o'tmaydi.

Yalpiz somsa yopmasdan.

Aziz mehmon kutmaydi.

Keling Navro`z sayliga,

Siz ham keeling mayliga

1-boshlovchi: Tabiatga sochib qo'yib turfa rang,

Chorlab turar bepoyon urf bir qarang

Quchoq ochib yuguraman bosh yalang

Ey bahor-ey, bahorjon-ey, bahorjon.

1-boshlovchi: Har tong maysa qulogida dur sirg`a
Marvaridlар сочилди адирга
Yur ko`klamni quchib qaytarib birga
Bu bahordir, bahorjon-ey, bahorjon.
Raqs.”Binafsha”
Navro`z bayram elimda
Zavqim qaynar dilimda,
Qalbim bahor jo`shaman
Shox raqsga tushaman.

1-boshlovchi: Aziz mehmonlar. “Navro`z” bayrami barcha sharq mamlakatlarida keng nisholanadi.

2-boshlovchi: Bizning bayramga bag`ishlangan tarbiyaviy soatimiz yakunlanayotgan bo`lsada,
Ona yurtimizda sayl davom etadi.
Biz sizlarga yaxshi kayfiyat, ko`tarinki ruh tilab qolamiz.